

O‘ZBEK TILI FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH (PISA MISOLIDA)

Baymuratova Meyrigul Matmuratovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Shumanay tumani 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining ozbek tili fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7327460>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tili fanini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish, xalqaro baholash dasturlari, pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim samaradorligini oshirish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: PISA, fikrlash qobiliyati, "fanlararo integratsiya", erkin fikrlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ (НА ПРИМЕРЕ PISA)

Аннотация. В данной статье говорится об использовании инновационных методов в обучении узбекскому языку, повышении эффективности образования с использованием международных оценочных программ, педагогических технологий.

Ключевые слова: PISA, мыслительные способности, «междисциплинарная интеграция», свободное мышление, информационно-коммуникационные технологии.

USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE TEACHING OF THE UZBEK LANGUAGE (IN THE EXAMPLE OF PISA)

Abstract. This article will talk about the use of innovative techniques in teaching the subject of the Uzbek language, international assessment programs, increasing the effectiveness of education using pedagogical technologies.

Keywords: PISA, the ability to think, "interdisciplinary integration", free thinking, Information and communication technologies.

KIRISH

Mamlakatimiz yangi innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot taraqqiyoti yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan ushbu davrda O'zbekiston kelajagi bo'lgan yoshlarning intellektual salohiyati va fikrlash qobiliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lim standari asosida shakllantirish hamda xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 –sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2017- 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" doirasida O'zbekistonda ta'lim sifati monitoringini yangicha xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash tizimi shakllantirilmoqda. Xalqaro baholash dasturlari deganda PISA, PIRLS, TIMSS kabi dasturlar tushuniladi. PISA –o'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi hisoblanishi barchamizga ma'lum. Dasturning asosiy maqsadi 15 yoshli o'quvchilarning 3 yo'nalishdagi: o'qish, matematik va tabiiy savodxonligini aniqlashdan iborat. Topshiriq qaysi fanga oid bo'lmasin, avvalo, uning zamirida o'qish yo'nalishiga alohida urg'u beriladi. O'qish –matnni tushunish demakdir. Shuning uchun ham biz o'zbek tili fani o'qituvchilari zimmamizdagi bu mas'uliyatni to'liq anglashimiz kerak. Ta'lim sifati baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish va joriy etish

jarayonida ta'lim tizimimizda bir qancha bo'shliqlarga duch kelinyapti. O'quvchilarning olgan nazariy bilimlarini hayotga qo'llay olish darajasi yaxshi emas. Xalqaro baholash dasturlari shu kabi kamchiliklarni bartaraf etgan holda dunyo bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga asos bo'ladi. Bugungi kun o'qituvchisi o'quvchiga har tomonlama mukammal ta'lim-tarbiya berish uchun universal (qomusiy) bilimga ega bo'lmog'i kerak. Bu esa "fanlararo integratsiya" tushunchasining nechog'li muhim atama ekanligini ko'rsatib bermoqda. O'zbekiston endilikda qator xalqaro baholash dasturlariga a'zo bo'lib, yoshlarining intellektual va kompetentlilik darajasini bilishga, kerak bo'lsa, o'quvchining mantiqiy fikrlashi va layoqatliligini oshirishni ko'zlamoqda. O'quvchilar bilimini xalqaro baholash dasturlari sinovlarida yaxshi natijalarni qo'lga kiritish uchun har bir darsda fanlararo integratsiyani qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

METOD VA METODOLOGIYA

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari o'qitishning yangi shakl va metodlarini ishlab chiqish uchun keng imkoniyat yaratildi. Shu bilan birga, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur o'rgatish, o'quvchilarni katta xajmdagi ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va mustaqil ishlash muammosi yuzaga kelmoqda. Bugungi kunda faqatgina ma'ruzaga asoslangan an'anaviy darslar vaqti o'tdi. Axborot oqimi sur'ati tezlashgan bir paytda o'tilayotgan har bir dars rang-barang bo'lmasa, o'quvchi e'tiborini bilimga jalb etish mushkul. Buning uchun o'qituvchi tinmay izlanishi, ijodkor bo'lmog'i darkor. Bunday holda, ayniqsa darsni o'yinlar asosida ko'rish tizimiga asoslanib o'tish sezilarli samara beradi. O'yinlar esa o'quvchi psixologiyasidan kelib chiqib, tanlangani ma'qul. Birinchi bo'lishga undash uslubi doimo o'zini oqlaydi. Chunki bolalar hamisha o'zini ko'rsatgisi, tengdoshlaridan bir qadam oldinda yurgisi keladi. Darslarda ham yangi ma'lumotlarni yetkazishdan avval o'qituvchi ularning dastlab olgan bilimlarini, tasavvurlarini aniqlashtiradi, bir tizimga soladi, olingan bilimlar har xil ko'rgazmali vositalar, slaydlar, multimediya, tarqatma materiallar, qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaxkamlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Darsda olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining asosiy elementlaridan biri, o'quvchilarning o'zaro faollik asosida mustaqil, erkin fikrlash o'quv va amaliy topshiriqlarini bajarishlari, xayotda albatta yetuklikka yetaklaydi. Darslarda foydalaniladigan har qanday interfaol usullar ta'lim harakteriga ega bo'lib, o'quvchilar bilimining mustahkamlanishiga, aniqlashtirilishi va kengayishiga, ularni umumlashtirishga va tizimga solishga yordam beradi. Ta'lim sifatini oshirishda amalga oshirilayotgan ishlar haqida gap ketganda, ta'lim berish jarayonini ezgulik ko'prigiga o'xshatamiz, bu ko'prikdan o'quvchilarimizni bilimli, dunyoqarashi keng qilib olib o'tish ustozni, ya'ni o'qituvchilarni vazifasi deb bilamiz. Darslarning nazariy va amaliy qismida o'quvchilarning qiziqishini oshirish uchun pedagogik texnologiyaning samarali usullaridan foydalanib, kichik guruhlarga bo'lingan holda olib boriladi. Mashg'ulotlarni olib borish jarayonini kuzatib borish va kerakli maslaxatlar berish kichik guruhlarda darslarni samarali o'tilishiga yordam beradi.

RESEARCH RESULTS AND DISCUSSION

O'z kasbini ustasi bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining yetuk mutaxassislari bilan uchrashuvlar tashkil etish, ular haqida o'quvchilarga so'zlab, savollarga hayotiy misollar keltirish bilan javob beriladi. Buning uchun faqat o'qish, o'rganish kerakligi haqida maslaxat beradi. Bunday malakali mutaxassislar bilan uchrashuvlar, bahs-munozaralar tashkil etish ham o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Ota-onalarda farzandini yuksak ma'naviyatli, bilimli, komil inson etib voyaga yetkazish istagini yanada kuchaytirish zarur. Maktabda ota-onalar bilan muntazam muloqotda bo'linadi va ular bilan bamaslaxat ish

olib boriladi, farzandida bor qobiliyat uchun birgalashib sharoit yaratib berilmasa, bu qobiliyat sekin asta so'nib, yo'q bo'lib ketishi mumkinligi va bu narsa farzandining kasb tanlashiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida ma'lumotlar berib boriladi.

Ta'lim texnologiyasining konferentsiya usullaridan ko'proq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu usul parallel guruhlar o'rtasida o'tkaziladi. Guruhlar bir-biriga savol yo'llaydilar. Savol bergan o'quvchi ekranda namoyon bo'ladi va parallel guruh o'quvchilariga savolini aytadi. Darsda o'tirgan o'quvchilar javob beradilar. To'g'ri javob uchun 5 ballni qo'lga kiritadilar. Chorak davomida guruh ballari hisoblab boriladi va chorak oxirida eng faol guruh aniqlanadi. Bu usul o'quvchilarni izlanishga, nutqini ravon bo'lishiga, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana olishga undaydi.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari o'qitishning yangi shakl va metodlarini ishlab chiqish uchun keng imkoniyat yaratildi. Shu bilan birga, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur o'rgatish, o'quvchilarni katta hajmdagi ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va mustaqil ishlash muammosi yuzaga kelmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, darsning sifati, samaradorligi o'qituvchi tomonidan unga puxta tayyorgarlik ko'rishiga bog'liqdir. Bunda dars ishlanmasining hozirgi zamon ilg'or texnologiyalariga muvofiq holda loyihalaniishi alohida o'rin tutadi. ta'lim sohasida pedagogik va axborot– kommunikatsiya texnologiyalardan, internet axborot ta'lim resurslaridan hamda konferentsiya usulidan foydalanish o'quvchilarining olayotgan bilimlarni yuqori saviyada bo'lishida samarali yordam beradi va ularning kelgusida malakali mutaxassislar bo'lib chiqishiga imkoniyat yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida qo'llanma.-T.:2019.
2. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.: O'qituvchi. 2010 y.